

BELGI ANGLATUVCHI SOHA TERMINLARINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Hamroyeva Muhayyo

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: So'z yasalishi, derivatsion qoliplar haqida, shuningdek bu qoliplar asosida belgi bildiruvchi so'zlarning termin sifatida istalgan sohada qo'llanilishi borasidagi fikrlar aytib o'tiladi. Bu esa tilning lug'at boyligini o'sishini takomillashtiradi.

Kalit so'zlar: so'z yasalishi, qolip, derivatsiya, sifat-terminlar, semantika, lug'at fondi.

So'z yasalishi tilshunoslikning alohida bo'limi hisoblanadi. U so'z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Har qanday so'z so'z yasash qoliplari, ya'ni derivatsion yasalish qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o'z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar – bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo'lsa) bog'lanishlar baribir saqlanib qoladi. Derivatsion qolip ikki uzvdan iborat bo'ladi:

- 1) qolipning shakliy tomoni;
- 2) qolipning mazmuniy tomoni.¹

Belgi bildiruvchi terminlarning derivatsion xususiyatlari ham so'z tarkibining imkoniyatlaridan kelib chiqib hosil qilinadi. Bunday so'zlarni biz barcha sohalarda, ijtimoiy qatlamlarda uchratishimiz mumkin. Termin sifatida ishlatilishi til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nutqiy hosilaga tatbiq qilinadi.

Bilamizki, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-istiloh so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin o'mida atama derivatini qo'llash faollashdi. Terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi: semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga kirishadi); vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi); semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalami ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikaldir);

¹ B.Mengliyev .Hozirgi o'zbek adabiy tili . Morfemika .Derivatsiya .Morfologiya . 2-qism . Qarshi-2005.

tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ulaming boshqa sistemaga xosligiga to'sqinlik qilmaydi); shakllanish yo'llari va vositalari.

Muayyan adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus tushunchalami ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelik hisoblanadi. O'zbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas. Umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalami anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarini istalgan soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda anglash mumkin.

Belgi bildiruvchi so'zlarning derivatsion yasalishi affiksatsiya va kompozitsiya usulida yuzaga kelishi mumkin. Bu esa tildagi tarixiylik va zamonaviylik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda semantik ahamiyatga ega bo'ladi. Xoslik ma'nosini hosil qiluvchi -iy (viy) sifati yasovchi affiksi orqali kimyo, iqtisod, psixologiya, fizika fanlariga oid derivatsion sifati-terminlar hosil qilish mumkin:

Konstitutsiyaviy, oilaviy, iqtisodiy, moliyaviy, kimyoviy, fizikaviy, yadroviy, fuqaroviy, samoviy, fazoviy, kolliziyaviy, moliyaviy kabi.

Oxiri undosh fonema bilan tugaydigan otlardan esa nisbiy-sifat terminlarning derivatsion yasalishi kuzatiladi: miqdoriy, ma'muriy, harbiy, tibbiy, qonuniy, intizomiy, iqtisodiy, majburiy, ixtiyoriy, majoziy, tahliliy, tavsifiy, tanqidiy, turkiy, forsiy va sh.k.

-simon o'xshashlik derivatsiyasini yasovchi qo'shimcha, ko'pincha, biologiya va zoologiya, anatomiya fanlaridagi terminlarni yasash uchun xizmat qiladi: ivasimon, tumshuqsimon, zanjirsimon, odamsimon, qisqichbaqasimon, kitsimon, krotsimon, maymusimon, o'rgimchaksimon, tatinsimon, mushuksimon, itsimon, bug'usimon, qalqonsimon, gazsimon, bargsimon, ipsimon, kipriksimon, nashtarsimon, ko'zachasimon singari;

Shuningdek, zaharli, sharikli, kislotali, tuzli zararli kabi derivatsion yasalishlarni kimyo fanida ham kuzatish mumkin. Bunday yangi terminlarning paydo bo'lishi terminologiya sohasining imkoniyatlari kengligidan dalolat. Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mavjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lug'at fondidagi so'zlarga murojaat etiladi. Mazkur guruhga tegishli so'z-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan o'zaro farq qiladi. Ba'zi bir leksik birliklar misolida maxsus ma'noning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *čanaq* so'zi 1) o'yib yasalgan kichik hajmdagi yog'och idish; 2) kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qo'llanangan (DTS 1969; 138). Bu leksema eski o'zbek adabiy tilida "hayvonlar suv

ichadigan idish”(ANATIL,III,1984;450) ma’nosini anglatgan. Fanning keying rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan so‘z tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus ma’noni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda “tos suyagi, dumg‘aza suyagi” va “kosasimon o‘yikli suyak” ma’nolarini ifodalashga yo‘naltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘zining dastlabki ma’nosini yo‘qotgan umumiste’mol so‘z ma’nosidan metaforik ko‘chim asosida maxsus terminning yasaliş jarayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunonchi, *chanoq* tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qo‘llanishi bilan diqqatni tortadi: *katta chanoq* («taz bolshoy»), *bolalar chanoq* ‘i («taz detskiy»), *infantil chanoq* («taz infantilniy»), *kichik chanoq* («taz maliy»), *karlik chanoq* («taz karlikoviy»), *yassi chanoq* («taz ploskiy»), *yorilgan chanoq* («taz razsheplenniy»), *keng chanoq* («taz shirokiy»), *tor chanoq* («taz uzkiy») va h.k.

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkcha *kuch* leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan o‘zlashgan *quvvat* so‘zi mavhum “kuch, qudrat, mador” ma’nosini ifodalash uchun kirib kelgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ushbu o‘zlashma umum tomonidan qo‘llanuvchi so‘z sifatida nafaqat o‘z o‘rnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida “energiya, quvvat” ma’nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiy *kuch* so‘ziga kelsak, u ko‘lam chegaralari keng ko‘pma’noli so‘z sifatida “kuch-qudrat, quvvat” ma’nosida umumadabiy tilda hamon qo‘llanib kelmoqda.

Umumilmiy leksika tarzida *kuch* fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida “qudrat”, “kuchlar, qo‘shinlar”, “quvvat, qonuniy huquqqa egalik” kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda - *iroda kuchi*; *Yerning tortish kuchi*; *ish/ishchi kuchi*; *mamlakatning harbiy kuchlari*; *yangi qonun kuchga kirdi* va h.k. Kuchli,kuchsiz kabi sifat –terminlar ham yasash uchun asos bo‘la oladi.

Umumadabiy leksik birlikning terminlashuv jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo‘ladi, ya’ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma’lum bo‘lgan qobiqdan foydalaniladi. Mana shunday usulda, masalan, *burun*, *qo‘ltiq*, *bo‘g‘oz*, *qo‘l*, *barmoq* kabi terminlar shakllangan.

Xulosa qilib aytganda, til o‘z imkoniyatlarini ,lisoniy va nutqiy hosilalardan kelib chiqqan holda o‘z lug‘at tarkibini boyitadi.Bunda derivatsiya hodisasi juda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.Mengliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2008.
- 2.A.Hojiyev .O‘zbek tilida so‘z yasalişhi.O‘zbekiston ,O‘qituvchi. – 1989.
3. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. Toshkent.